

**OILA PEDAGOGIKASI ORQALI YOSH AVLODNI
IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDA QO'LLAB-QUVVATLASH
MASALALARI**

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

*Pedagogika yo'nalishi talabasi **Fatxullayeva Ruhshona***

E-mail: ruxshonafatxullayeva681@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila pedagogikasining yosh avlod ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada oilaning bola shaxsini shakllantirishdagi asosiy pedagogik funksiyalari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda zamonaviy davrda yuzaga kelayotgan muammolar yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va davlat siyosatining bu boradagi ustuvor yo'nalishlari tahliliy yondashuv asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oila pedagogikasi, ijtimoiylashuv, tarbiya, yoshlar, ijtimoiy institut, pedagogik madaniyat, qo'llab-quvvatlash, oila qadriyatlari.

Kirish: Oila insoniyat jamiyatining dastlabki davrlarida paydo bo'lgan tabiiy ijtimoiy birlikdir. Dastlab odamlar hayot kechirish, himoyalaniish va naslni davom ettirish zarurati tufayli birlashgan. Shu tabiiy ehtiyojlar asosida oila shakllanib, asta-sekin jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Oila avval urug'-qabila shaklida mavjud bo'lgan bo'lsa, jamiyat taraqqiyoti, mehnat taqsimoti va mulkchilik munosabatlari rivojlanishi natijasida u mustaqil ijtimoiy institut sifatida shakllangan. Oila insoniyat tarixining barcha bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, qadriyatlarni avloddan avlodga o'tkazish va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutgan. Oila bo'lib yashash barcha mahluqotlar orasida faqat inson zotigagina xosdir. Shu bois oila

jamiyatning birinchi va birlamchi bo'g'i hisoblanadi. Shunga ko'ra hech mubolag'asiz aytish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, tayanch tuzilmasidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma'nan va axloqan tarbiya topadi. Binobarin, oila er-xotin, ulaming bolachaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, ya'ni xonadon hisoblanadi. Ayni chog'da oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi hamdir. Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk, ijtimoiy faol, vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonning eng muhim tayanchi esa oila hisoblanadi. Oila pedagogikasi shaxsni tarbiyalash, unga ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni singdirishning tabiiy muhitidir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda eng avvalo, oila muhitini mustahkamlash, ota-onalar mas'uliyatini oshirish va milliy qadriyatlarimizni hayot tarziga aylantirish zarur." Shu bois, oila pedagogikasining yosh avlod ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini chuqur tahlil etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bugungi kunda jamiyatning barqaror taraqqiyoti, milliy g'oya va ma'naviyatning mustahkamlanishi avvalo yoshlarning qanday tarbiya olayotganiga bog'liqdir. Shaxsning ijtimoiylashuvi — bu uning jamiyat hayotiga faol kirishuvi, ijtimoiy qadriyatlarni anglash va ularga amal qilish jarayonidir. Ushbu jarayonning boshlang'ich nuqtasi aynan oiladir, chunki bola ilk bor ijtimoiy me'yor, odob-axloq, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, hurmat va mas'uliyatni o'z oilasida o'rganadi. Oila pedagogikasining asosiy mohiyati ham shundaki, u shaxsda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga, ya'ni insonning o'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida anglashiga xizmat qiladi. Bu pedagogikaning asosiy vazifalari – bola tarbiyasini rejalashtirish, uni axloqiy, aqliy, estetik va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishdir. Shu nuqtai nazardan, oila pedagogikasining dolzarbligi shundaki, u nafaqat bolani tarbiyalashni, balki oilaning o'zini ham ijtimoiy

institut sifatida rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ota-onalar nafaqat tarbiyachi, balki jamiyat bilan o'zaro aloqada bo'lgan ma'naviy mas'ul shaxs sifatida namuna ko'rsatadilar. Shuning uchun ham oila pedagogikasini mustahkamlash, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish — yosh avlodning to'laqonli ijtimoiylashuvi uchun zarur omillardandir. Bugungi globallashuv sharoitida, axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi oilaviy tarbiya jarayoniga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda oila nafaqat an'anaviy qadriyatlarni singdiruvchi, balki zamonaviy dunyoqarashni shakllantiruvchi markazga aylanishi lozim. Shu bilan birga, yoshlarning mustaqil fikrlashi, raqamli savodxonligi, ijtimoiy mas'uliyat hissini oshirishda oila pedagogikasining o'rni beqiyosdir. Demak, yosh avlod ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik va davlat siyosati o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Oila pedagogikasining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil etish esa yoshlarning har tomonlama barkamol, ijtimoiy faol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Oila pedagogikasining jamiyatdagi o'rni nafaqat ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga, balki huquqiy asosga ham tayanadi. Xususan yurtimizdagi oilalarning haq huquqlari, burch-majburiyatlarini belgilash uchun „Oila kodeksi“ qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (1998-yil 30-aprelda qabul qilingan, keyinchalik bir necha marta tahrir qilingan). Kodeks 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat. Ushbu kodeks Oila institutining mustahkamlanishida, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat sifatida xizmat qiladi. Mazkur Kodeksda oilaning asosiy vazifasi — shaxsni barkamol qilib tarbiyalash, farzandlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ularning sog'lom, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faol shaxs sifatida kamol topishiga

zamin yaratish deb belgilangan. Oila pedagogikasining amaliy samaradorligi davlat miqyosida belgilangan strategik vazifalar bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyulda qabul qilingan “Yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni bu borada muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur farmonda yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Farmonda ayniqsa, oila muhitining yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilaviy qadriyatlarni targ'ib etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Farmonning asosiy maqsadlaridan biri — yoshlarni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllantirishda oilaning pedagogik salohiyatini oshirishdir. Unda “Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmini takomillashtirish orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish” vazifasi belgilangan. Bu yondashuv oila pedagogikasini ijtimoiylashuvning markaziy omili sifatida e'tirof etadi. Farmonda, shuningdek, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi tizimlar orqali yosh oilalarga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni kasb-hunar, tadbirkorlik va ta'lim orqali mustaqil hayotga tayyorlash mexanizmlari belgilab berilgan. Bu chora-tadbirlar oila institutini nafaqat ijtimoiy, balki pedagogik mustahkamlovchi omilga aylantiradi. Chunki iqtisodiy jihatdan barqaror va ma'naviy uyg'un oila muhitida yoshlar o'zini jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida his etadi. Mazkur farmonning ijrosi natijasida “Yoshlar ishlari agentligi” va “Oila va xotin-qizlar qo'mitasi” o'rtasida o'zaro hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi. Bu hamkorlikning maqsadi — oila pedagogikasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy, psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda qo'llab-quvvatlashdir. Shunday qilib, ushbu farmon oila pedagogikasining ijtimoiy ahamiyatini yanada kuchaytirib, yoshlarni ijtimoiylashuv jarayonida davlat,

jamiyat va oila o'rtasida uzviy uchlik tizimini shakllantirdi. Endilikda yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligi, vatanparvarlik tuyg'usi va mas'uliyat hissi aynan shu tizimning samarali ishlashi bilan bog'liqdir.

Oila pedagogikasi endi faqat tarbiyaviy nazariya emas, balki amaliy ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Farmon bilan belgilangan bu yo'nalishlar yoshlarni jamiyat hayotiga tayyorlash, ularni milliy g'oyaga sodiq, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishda huquqiy, ma'naviy va tashkiliy asosni yaratdi. Shuningdek, hujjatda davlat organlari, ta'lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida yoshlar siyosatini amalga oshirishda oila bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish, ota-onalar va farzandlar o'rtasida sog'lom muloqotni yo'lga qo'yish, ijtimoiy-pedagogik yordam tizimini kuchaytirish vazifalari belgilangan. Bu esa, oila pedagogikasining nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiylashtiruvchi funksiyasini ham kuchaytiradi. Chunki, yoshlar o'z hayotiy qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini, avvalo, oila muhitida shakllantiradi. Shu boisdan, oila pedagogikasi orqali yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, to'g'ri hayotiy yo'nalish berish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va Prezident farmonlari asosida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiylashuv jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun mustahkam huquqiy va pedagogik zamin yaratmoqda. Oila pedagogikasi esa bu jarayonning nazariy va amaliy poydevorini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, oila nafaqat farzandni tarbiyalash joyi, balki ijtimoiy qadriyatlar, milliy an'analar va fuqarolik madaniyatining shakllanish maktabi sifatida ham e'tirof etiladi. Oila muhitida bola dastlab muloqot qilishni, hurmat va mehnri, mas'uliyatni hamda mehnatsevarlikni o'rganadi. Shu jihatdan oila pedagogikasi yosh avlodni jamiyat hayotiga moslashtirish, ularni ijtimoiy

munosabatlarga tayyorlashda asosiy omil hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, sog'lom psixologik muhitni yaratish, ota-onalar mas'uliyatini oshirish hamda pedagogik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qator dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlat siyosatida oilaning ijtimoiy-pedagogik rolini mustahkamlash maqsadida ta'lim muassasalari, mahalla va oila markazlari o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik natijasida oila va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqalar yanada mustahkamlanib, yoshlarning sog'lom ijtimoiylashuvi uchun zarur sharoit yaratilmoqda. Natijada, oila pedagogikasi nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi va ma'naviy uyg'unlikni mustahkamlovchi omil sifatida qaralmoqda. U yosh avlodni hayotga tayyorlash, ularda mustahkam dunyoqarash, ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, oila pedagogikasi yosh avlodning ijtimoiylashuv jarayonida hal qiluvchi o'rin tutadi. Oila – bu shaxsning dastlabki ijtimoiy tajriba makoni, unda bola jamiyat qoidalarini, axloqiy me'yorlarni va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, shuningdek, Prezidentning “Yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni oilaning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy asos yaratmoqda.

Oila pedagogikasini rivojlantirish orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni ma'naviy barkamol, vatanparvar va mas'uliyatli shaxslar qilib tarbiyalash imkoniyati kengayadi. Shu bois, oilaning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirish hamda oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Natijada, oila pedagogikasiga tayanilgan

yondashuv yosh avlodning sog'lom ijtimoiylashuvini ta'minlaydi, jamiyatda ma'naviy barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi". – Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. – 2022-yil.
- 4.Oila Pedagogikasi.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan darslik.Toshkent-2007
5. K.Turg'unboyev.M.Tolipov.L.Oxunov. Ijtimoiy pedagogika asoslari. – Toshkent-2008.